

**O‘TKIR RESPIRATOR KASALLIKLAR BILAN OG‘RIGAN
BOLALARDA ANTIBAKTERIAL TERAPIYANI TAHLIL QILISH**

Xo‘jaqulov Davron Abdixakimovich

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Annotatsiya. O‘tkir respirator kasalliklar infeksiyalarning polietiologik guruhi bo‘lib, ularning qo‘zg‘atuvchilari viruslar yoki bakteriyalar bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar. O‘tkir respirator kasallik, sefalosporin, antibakterial terapiya, tahlil, kuzatuv, kasallanish.

Maqsad: kasalxonaga yotqizilgan bolalarda o‘tkir respirator kasalliklarning antibakterial terapiyasini tahlil qilish.

Materiallar va usullar: 2024 yil yanvardan martgacha bo‘lgan davrda Samarqand viloyat, Payariq tuman tibbiyot birlashmasining yuqumli kasalliklar bo‘limiga o‘tkir respiratorli infeksiyalar tashxisi qo‘yilgan 47 bemor doimiy namuna olish usuli yordamida tadqiqotga kiritildi.

Natijalar: Kuzatuv natijalari va tibbiy hujjatlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, uch yoshgacha bo‘lgan bolalar orasida kasallanish holati ko‘proq uchragan, ularning ulushi (69 %) ni tashkil qilib, kasallanish holati o‘g‘il bolalar orasida ko‘proq uchragan (62 %).

Kasallik boshlanganidan keyingi dastlabki uch kun ichida bolalarning 83 foizi kasalxonaga yotqizilgan. Ko‘pgina hollarda (94 %) bemorlar o‘rtacha og‘irlik holatida qabul qilingan, ulardan (11 %) bola kasalxonaga yotqizilganida og‘ir ahvolda deb baholangan.

(51%) hollarda antibiotiklar o‘tkir respiratorli infeksiyali bolalarni davolashda ishlatilgan. Antibakterial terapiyani tayinlash uchun ko‘rsatmalarga nafas yo‘llari va o‘pkadagi yallig‘lanish o‘zgarishlari darajasining oshishi, bakterial asoratlarning rivojlanishi sabab bo‘lgan. Shu bilan birga, antibakterial terapiya

birinchi marta kasallik boshlanganidan 3 kun o'tgach, o'pkada yallig'lanish o'zgarishlari va kasalxonaga yotqizilgan bolalarning 5 foizida bakterial infeksiya belgilari bo'lmasa ham tavsiya etilgan.

Antibakterial terapiya tahlili shuni ko'rsatdiki, sefalosporinlar guruxidagi preparatlar tez-tez ishlatilgan, ulardan ikkinchi va uchinchi avlod teng nisbatda buyurilgan, makrolidlarning ulushi (23%) ni tashkil qilgan. Kasalxonada sefalosporinlardan foydalanish ambulatoriya sharoitida boshqa antibiotiklarning samaradorligi bo'lmaganligi bilan bog'liq. Umuman olganda, sefalosporinlar (56%) hollarda buyurilgan, (11 %) hollarda bolalar ikki yoki undan ortiq antibakterial preparatlarni qabul qilishgan.

Xulosa: shunday qilib, o'tkir respiratorli infeksiyalar bilan og'riqan bemorlarning 83 foizida infeksiya asoratlarsiz va yallig'lanishsiz davom etgan.

O'tkir respiratorli infeksiyalari bo'lgan har uchinchi boladan biriga (37%) antibakterial terapiyani tayinlashga ko'rsatma bo'lgan, (11 %) holatda o'tkir respiratorli infeksiyalarni davolash uchun ikki yoki undan ortiq antibakterial preparatlarni kombinatsiya holatida qo'llash talab qilingan.

Adabiyotlar.

1. Abdikhakimovich, K. D. (2023). ANTIMICROBIAL SUBSTANCES OF LACTIC BACTERIA AND PRACTICAL ASPECTS OF THEIR USE. OBRAZOVANIE NAUKA I INNOVATSIONNIYE IDEI V MIRE, 33(1), 32-37.
2. Abdikhakimovich, Khuzhakulov Davron. "LABORATORY DIAGNOSTICS OF HEPATITIS C VIRUS." TADQIQOTLAR 31.2 (2024): 53-56.
3. Fazliddinovna, Boboqandova Mexriniso, Oripova Pokiza Olimovna, and Xudjaqulov Davron Abduhakimovich. "Innovative technologies in the training of future doctors." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 12.4 (2022): 594-597.
4. Abdikhakimovich, Khujakulov Davron. "ASSESSMENT OF THE QUALITY OF LIFE OF PATIENTS IN MODERN MEDICINE." Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali 1.17 (2023): 220-224.

5. Abdikhakimovich K. D. PERFORMANCE OF INDEPENDENT WORK OF STUDENTS IN THE DEPARTMENT OF MICROBIOLOGY, VIROLOGY AND IMMUNOLOGY //TADQIQOTLAR. – 2024. – T. 31. – №. 2. – S. 57-61.
6. Abdikhakimovich, X. D., & Husan, R. (2023). STUDYING ANXIETY IN YOUNGER SCHOOLCHILDREN. TADQIQOTLAR, 25(1), 134-137.
7. Yusupov, M. I., G. M. Odilova, and X. SH. Shaykulov. "Ob izmenenii svoystv kishchnykh palochek pri ponosax u detey." *Ekonomika i sotsium* 3-2 (82) (2021): 611-616.
8. Yusupov, M., Shaykulov, X., Odilova, G., & Mamarasulova, N. (2023). Rannee vyavlenie rotavirusnoy infektsii u detey. *Katalog monografiy*, 1(1), 1-68.
9. Boltayev, K. S., & Xo'jaqulov, D. A. (2021). PIYOZ–ALLIUM CEPA NEMATODALAR FAUNASI. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 1213-1218.
10. Xujakulov, Davron Abdixakimovich, et al. "Sostoyanie vneshnego dixaniya u bolnix detey so srednetyajelim techeniem pishevogo botulizma." *Voprosi nauki i obrazovaniya* 28 (77) (2019): 79-86.
11. Boltaev, K., Mamedov, A., Xojakulov, D., & Mamarasulova, N. (2024). Samarqand viloyati to 'qay sharoitida o 'suvchi yovvoyi o 'simliklar nematodalari kompleksining ekologiyasi. *Katalog monografiy*, 1(1).
12. Mamarasulova, N. I., & Odilova, G. M. (2023). BERBERIS INTEGERRIMA BUNGENING IKKILAMCHI METABOLITLARINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI VA BIOTEXNOLOGIK AHAMIYATI. *GOLDEN BRAIN*, 1(10), 33-43.